

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**USAROV G‘AFUR XUSANOVICH**

**MARKAZIY VA JANUBIY O‘ZBEKISTON MOSKITLARI (DIPTERA:  
PHLEBOTOMINAE) FAUNASI VA ULARNING EPIDEMIOLOGIK  
AHAMIYATI**

**03.00.06 – Zoologiya**

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Usarov G‘afur Xusanovich**

Markaziy va Janubiy O‘zbekiston moskitlari (Diptera: Phlebotominae) faunasi va ularning epidemiologik ahamiyati..... 3

**Усаров Гафур Хусанович**

Фауна москитов (Diptera: Phlebotominae) Центрального и Южного Узбекистана и их эпидемиологическое значение ..... 21

**Usarov Gafur Husanovich**

Fauna of mosquitoes (Diptera: Phlebotominae) of Central and Southern Uzbekistan and their epidemiological significant ..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 42

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**USAROV G‘AFUR XUSANOVICH**

**MARKAZIY VA JANUBIY O‘ZBEKISTON MOSKITLARI (DIPTERA:  
PHLEBOTOMINAE) FAUNASI VA ULARNING EPIDEMIOLOGIK  
AHAMIYATI**

**03.00.06 – Zoologiya**

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/B983 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz.) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Turitsin Vladimir Sergeevich  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** Eshova Xolisa Saidovna  
biologiya fanlari doktori, professor

Mirzayeva Gulnara Saidarifovna  
biologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.B.02.08 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «19» mart kuni soat 14<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy, Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti binosi, 2-qavat majlislar zali. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks (+99866) 239-11-40, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№20-raqami bilan ro'yxatga olingan): 140103, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-40, (+99866) 239-18-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «03» mart kuni tarqatildi.  
(2025-yil «03» mart da 19-raqamli reyestr bayonnomasi)



**T.F.Rajabov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, biologiya fanlari doktori

**M.S.Kuziyev**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

**A.R.Jabborov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda moskitlarning (Diptera: Phlebotominae) 800 dan ortiq turi ma'lum bo'lib, ular asosan dunyoning issiq iqlimli mintaqalari xususan, Janubiy Amerika, Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo va Markaziy Amerikada tarqalgan. Ushbu kenja oila Psychodidae oilasining eng xilma-xil va muhim ahamiyatga ega guruhi hisoblanadi. Ularning ahamiyati ushbu kenja oila vakillari xavfli transmissiv kasallik - leishmanioz qo'zg'atuvchilarini tashishi bilan bog'liq. Leyshmaniozlar–odam va hayvonlarda uchraydigan transmissiv kasallik bo'lib, qo'zg'atuvchisi Euglenozoa tipining Kinetoplastida kenja tipi, Tripanosomatida turkumiga mansub leishmaniyalar (*Leishmania* Ross, 1903) hisoblanadi. Leyshmaniyalar bilan zararlangan moskitlar sog'lom odam va hayvonlarni chaqish yo'li bilan kasallikni tashib o'tkazadi. Shunga ko'ra, moskitlarning xilma-xilligi, tarqalish xususiyatlari, ekologiyasi va leishmaniyalarni tashishdagi ahamiyatini kompleks tadqiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda turli yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi parazitlarni tashuvchi hashoratlar faunasi, turlar xilma-xilligi, kasallikni tashilishidagi epidemiologik ahamiyati, alohida hududlar faunasi va uning shakllanishi, zoogeografik tavsifi va kasalliklarni keltirib chiqaruvchi hashoratlarning rivojlanish biologiyasi, muayyan kasallikni tarqalishidagi ahamiyatini aniqlash va kasalliklarni oldini olish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada moskitlarning biosenozlardagi tur tarkibi, turlarning mavsumiy va davriy dinamikasini aniqlash, kasalliklarning tashilishidagi ahamiyatini aniqlash, turlarning tarqalish o'choqlarini asoslash, tashuvchilar organizmida kasallik keltirib chiqaruvchi parazitlarning rivojlanish biologiyasini o'rganish va mavsumiy dinamikasini tahlil qilish, moskitlar faunasida yuzaga chiqayotgan o'zgarishlarni aniqlash hamda ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish va mavjud qarshi kurash usullarining samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda moskitlarning turli geografik hududlarda tarqalishi, uchratish mumkin bo'lgan o'choqlari mamlakatimizning markaziy va janubiy hududlarining nisbatan o'zining iqlim sharoiti bilan leishmanioz tashuvchilari hisoblangan moskitlar uchun qulayligi, leishmanioz kasalligining yangi o'choqlarini shakllanishining oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish, kasallikni tashuvchi moskitlar xususiyatlarini o'rganish, tarqalish yo'llari va hududlarini aniqlash va profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. «O'zbekiston - 2030» strategiyasida<sup>1</sup> «aholi orasida yuqumli kasalliklarni qisqartirish» vazifasi belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizning Markaziy va Janubiy hududlarida, jumladan leishmanioz o'choqlarida moskitlarning xilma-xilligi, leishmaniyalarni tashuvchi moskitlarning hozirgi kundagi tur tarkibi, ekologik xususiyatlari va tarqalish areali o'rganish hamda profilaktik chora-tadbirlarni

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni.

ishlab chiqish, ularning ekologiyasi va mavsumiy dinamikasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi “Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4891-son qarorida belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etishga ma’lum darajada hissa qo‘shadi. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 07-noyabrdagi 914-son qarorida, “O‘simlik va hayvonot dunyosi ob’yektlarining davlat hisobini yuritish, ulardan foydalanish hajmini hisobga olish va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi shuningdek ushbu faoliyat bilan bog‘liq boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari VI «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hozirgi kunda dunyoning turli mintaqalarida moskitlarning leyshmanioz o‘choqlaridagi tur tarkibi, epidemiologiyasi, generatsiya davrlari va dizenfeksiya muddatini belgilash bo‘yicha bir qator yangiliklar chet elda chop etilgan ilmiy adabiyotlarida keng yoritib kelinmoqda. Qator mualliflar ma’lumotlariga ko‘ra MDH mamlakatlarida va Gruziyada moskitlarning 4 avlod (Phlebotomus, Paraphlebotomus, Adlerius, Larroussius) kabi vakillari uchrashi aytib o‘tilgan. O‘rta Osiyo mamlakatlarida uchraydigan Sergentomiya turkumi 4 kenja turkumni o‘z ichiga olib, ular Sergentomiya, Perfiliewia, Parrotomiya, Sintoniylardir. (Young D.G., Duncan M.A. 2012, Galati A.B., 2013, Баранец М, 2020, Lee H, Halverson S, Ezinwa N. 2018; Ickowicz A, Foster S.D, Hosack G.R, Hayes K.R. 2021; Olagunju E.A. 2022, Elbers A.R, Koenraad C.J, Meiswinkel R. 2018; Merdić E, Klobučar A, Žitko T, 2020). Moskitlarni ular tashiydigan leyshmaniyalar turiga qarab farqlanishini inobatga olgan holda, ushbu hududlar bo‘ylab leyshmaniozning qanday turi bilan zararlanish xavfi mavjudligini aniqlash mumkin (Rojers E. 2013, Ratklif N.A. et al, 2021, Kellina O.I., Strelkova M.V. 2011., Medlock J.M, Hansford K.M, 2012; Jayakrishnan L, Sudhikumar A.V, Aneesh E.M 2018, Zhang J, Cosner C, Zhu H. 2018, Abduljalil J.M., Galil F.M. 2022).

O‘zbekistonning leyshmanioz o‘choqlarida moskitlarning tur tarkibini aniqlash bo‘yicha 1970-yillarga qadar va undan keyingi yillarda bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan (Jaborov L.N., 1972; Perfilov P.P. 1966, Artemeva M.M. 1970, Jirenkina E.N, Ponirovskiy E.N, Strelkova M.N, Kovalenko D.A, Ponomoryova V.I. 2013, Jahongirov Sh.M. 2015). Biroq, O‘zbekistonning Markaziy va Janubiy hududlarida moskitlar tur tarkibini aniqlash, PZR usulini qo‘llash asosida moskitlar identifikatsiyasi aniqligini oshirish, natijalarni Genbank ma’lumotlari bilan taqqoslashga oid ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Xususan, Respublikamizning leyshmanioz tarqalgan hududlarida so‘ngi 50 yil ichida moskitlarning tur tarkibidagi o‘zgarishlar qayta ko‘rib chiqilmagan, shu bilan bir

qatorida hududning iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda, moskitlarning generatsiya davrlaridagi o'zgarishlar o'rganilmagan va ularga qarshi kurashning hududlar bo'yicha alohida muddatlari ishlab chiqilmagan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, leishmanioz o'choqlaridagi moskitlarning tur tarkibiga morfologik va molekulyar biologik yo'l bilan aniqlik kiritish leishmaniozning qaysi turi bilan zararlanish mumkinligini ko'rsatadi. Moskitlar generatsiya davrlarini aniqlash, ularga qarshi kurashning yangi davrlarini belgilash imkonini beradi. Ushbu turdagi olib borilgan tadqiqotlar moskitlar sonini kamaytirishda, leishmanioz turlarining hududlarda tarqalishini prognozlashda, moskitlarning generatsiya davrlarini o'rganish asosida ularga qarshi kurashning aniq davrlarini belgilash zarurligini taqozo etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotlarining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq Bio-01-2021 «Janubiy-g'arbiy O'zbekiston hayvonot dunyosining faunasi, ekologiyasi va muhofazasi hamda ulardan ratsional foydalanish» mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Markaziy va Janubiy O'zbekiston hududlarining leishmanioz o'choqlarida moskitlarning tur tarkibida so'nggi yillarda kuzatilgan o'zgarishlar ko'lamini aniqlash va leishmanioz tashuvchisi sifatidagi ahamiyatini baholashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining leishmaniozga endemik hududlarida tarqalgan moskitlar tur tarkibi hamda epidemiologik ahamiyatni tahlil qilish;

olingan entomologik ma'lumotlarni 1970-1980 yillarda o'tkazilgan tadqiqot ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali yuzaga kelgan o'zgarishlarni baholash;

Markaziy va Janubiy hududlar iqlimidan kelib chiqqan holda har bir hududda moskitlarning generatsiya davrlarini aniqlash;

teri leishmaniozi tashuvchisi hisoblangan turlar (*Phlebotomus papatasi*, *Phlebotomus sergenti*)ning morfologik jihatdan to'g'ri aniqlanganligini tasdiqlash maqsadida molekulyar-genetik (PZR, sekvinatsiya) tahlillarni qo'llash va olingan natijalarni butun jahon GenBank ma'lumotlar bazasiga joylash;

moskitlarga qarshi kurash samaradorligini oshirish maqsadida har bir hudud iqlimidan kelib chiqqan holda dezinfeksiya tadbirlarining optimal muddatlarini aniqlash;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekistonning Markaziy va Janubiy hududlaridagi leishmanioz o'choqlarida tarqalgan Phlebotominae kenja oilasiga mansub hasharotlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** moskitlarning tur tarkibi, faunasi, xilma-xilligi, ekologik va epidemiologik xususiyatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlar dala tadqiqot usullari- material to'plash va laboratoriya usullari, shu jumladan molekulyar genetik usullar, filogenetik tahlil

usullari, moskitlarning tur tarkibini aniqlashning morfometrik, molekulyar genetik usullari va statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida so‘nggi 50 yil ichida leishmanioz o‘choqlarida moskitlar faunasi va tur tarkibidagi o‘zgarishlar aniqlangan;

leishmanioz o‘choqlarida moskitlarning ikki avlodi (*Phlebotomus* va *Sergentomyia*) ga mansub, 9 turi (*Ph.papatasi*, *Ph. sergenti*, *Ph. longiductus*, *Ph. caucasicus*, *Ph. mongolensis*, *Ph. andrejevi*, *Ph. alexandri*, *S. sogdiana*, *S. grecovi*) aniqlanib, shulardan *Ph. papatasi* va *Ph. sergenti* dominant turligi ilmiy asoslangan;

*Phlebotomus longiductus* turi Surxondaryo viloyati Denov tumani, Jizzax viloyati Jizzax shahri va Sharof Rashidov tumanlari hududlarida ilk marotaba topilgan va ushbu hududlarda ichki leishmaniozning yangi o‘choqlari shakllanishi mumkinligi isbotlangan;

iqlim o‘zgarishidan kelib chiqqan holda hududlarda moskitlarning generatsiya davrlaridagi o‘zgarishlar aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Jizzax, Samarqand Qashqadaryo, va Surxondaryo viloyatlari leishmanioz o‘choqlaridan tadqiqot davomida 9 turga mansub 2905 moskitlar tutilgan bo‘lib, ulardan kelgusida moskitlarni morfologik taqqoslash orqali aniqlashga imkon beradigan 180 ta doimiy preparatlar tayyorlangan;

O‘zbekistonning Markaziy va Janubiy hududlarida moskitlarning generatsiya davrlari belgilab berilgan va ularga qarshi kurashning optimal muddatlari ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston moskitlari tur tarkibini aniqlashda molekulyar biologik usullarni qo‘llash yo‘li bilan takomillashtirilgan va olingan ma’lumotlar xalqaro Genbank bazasidagi ma’lumotlar bilan taqqoslangan;

O‘zbekistonning Markaziy va Janubiy hududlaridagi leishmanioz o‘choqlarida moskitlarning tur tarkibidagi so‘nggi o‘zgarishlar aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqot uchun yetarli miqdordagi material to‘planganligi, tadqiqotning maqsad va vazifalariga mos keladigan usullardan foydalanganligi, natijalarning nufuzli jurnallarda chop etilganligi, turlar identifikatsiyasining xorijiy mutaxassislar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekistonning Markaziy va Janubiy hududlaridagi leishmanioz o‘choqlaridagi moskitlarning tur tarkibi to‘g‘risidagi yangi ma’lumotlar olinganligi, generatsiya davrlarining hududlar kesimida aniqlanganligi, O‘zbekistonda uchrovchi moskit turlarining molekulyar-genetik jihatdan tahlil qilinganligi, moskitlarga qarshi kurashda dizenfeksiya muddatlari hudud iqlimidan kelib chiqqan holda belgilanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati moskitlar faunasi va ekologiyasi to‘g‘risida tushunchalarni kengaytirib, sanitariya-epidemiologiya xizmati uchun

moskitlar sonini nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlar rejalarini tuzishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekistonning Markaziy va Janubiy hududlarining leyshmanioz o'choqlarida moskitlarning tur tarkibini aniqlash usullarini takomillashritish bo'yicha olingan ilmiy natijalar:

O'zbekistonning markaziy va janubiy hududlarida leyshmanioz o'choqlarida moskitlarning tur tarkibi, generatsiya davrlari, moskit turlarining molekulyar tahlil natijalari va moskitlarga qarshi kurash bo'yicha tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining Surxondaryo va Jizzax viloyati boshqarmalari entomologiya va parazitologiya bo'limlari faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining 2023 yil 27 dekabrda 03-8/2091-son ma'lumotnomasi) olingan. Natijada leyshmanioz o'choqlarida moskitlarning tur tarkiblarini morfologik va molekulyar-genetik usulda aniqlash hamda moskitlarning generatsiya davrlaridan kelib chiqqan holda dizenfeksiyalash muddatlarini belgilash, leyshmanioz kasalligini tarqalishini oldini olish imkonini bergan;

Teri leyshmaniozi asosiy tashuvchilari hisoblangan *Ph. papatasi* va *Ph. sergenti* larining mitoxondrial DNKsining COI geni nukleotidlar ketma-ketligi bo'yicha ma'lumotlar "Biotexnologik axborotlar milliy markazi" Genbank bazasiga joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar milliy markazining 2024-yil 25-fevraldagi va 2024-yil 10-apreldagi ma'lumotnomasi, NCBI). Natijada, SUB14268119 *Ph.papatasi* PP389414 va SUB14360763 *Ph.sergenti* PP590312 turlarining identifikatsiya raqamlari olingan va turlarni molekulyar taksonomik va filogenetik o'rnini asoslash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, maqsad va vazifalar, shuningdek, tadqiqotning ob'ekti va predmeti ifodalangan, unda tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirish yo'nalishlariga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan,

natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «***Plebotomidae* kenja oilasi vakillarining o'rganilganlik darajasi (adabiyotlar sharhi)**» deb nomlangan birinchi bobida adabiyotlar sharhi tizimli tartibda keltirilgan. Tadqiqot obyekti hisoblangan moskitlar duyoda keng tarqalgan, ular ayniqsa issiq iqlimli mamlakatlarda ko'plab uchraydi, ularning shimoliy tarqalish chegarasi Kanadaning elliginchi shimoliy kengligigacha va Fransiya hamda Mongoliyaning elliginchi shimoliy kengliklarigacha tarqalgan. Mavjud materiallarni tahlil qilish asosida Turkmaniston moskitlari faunasini tashkil etuvchi turlarning landshaft va biotopik tarqalishi kuzatildi va leyshmanioz patogenlarini (*Ph.papatasi*, *Ph.turanicus*, *Ph.sergenti*) tashuvchilarining tarqalishi xaritalari, shuningdek, mamlakat hududida eng ko'p uchraydigan turlar (*Ph.caucasicus* va *Ph.andrejevi*) ekanligi aytib o'tilgan. Asosan O'zbekiston moskitlari faunasi zoonoz teri leyshmaniozi (ZTL) va ichki leyshmanioz (IL) o'choqlarida o'rganilgan va 15 tur: *Ph.papatasi*, *Ph.sergenti*, *Ph.caucasicus*, *Ph.mongolensis*, *Ph.andrejevi*, *Ph.alexandri*, *Ph.keshishiani*, *Ph.smirnovi*, *Ph.longiductus*, *Ph.angustus*, *S.murgabiensis*, *S.grecovi*, *S.sogdiana*, *S.sumbarica*, *S.clydei* qayd etilgan. L.N.Konshina tomonidan 1972 yilda Qoraqalpog'iston ASSR (Qoraqalpog'iston Respublikasi) hududida ZTL o'choqlarida 9 turdagi moskitlar: *Ph.papatasi*, *Ph.sergenti*, *Ph.caucasicus*, *Ph.mongolensis*, *Ph.andrejevi*, *Ph.alexandri*, *Ph.smirnovi*, *S.arpaklensis*, *S.grecovi*. topilgan, undan *Ph.smirnovi* ushbu Respublikada ilk bor qayd qilingan.

1982 va 1984 yillarda Jizzax viloyatining Zomin tumani bilan bog'liq bo'lgan Turkiston tizmasining tog 'va tog' oldi vohasining Shimoliy qismida birinchi marta tadqiqotlar o'tkazish asosida: *Ph.papatasi*, *S.grecovi*, *Ph.alexandri*, *Ph.sergenti*, *Ph.angustus* va *Ph.keshishiani* turlari uchrashini qayd qildi

1988 yilda Sh. M. Jahongirov tomonidan Janubiy Cho'l kanalining o'ng qirg'og'ida 6 tur moskitlar uchrashini: *Ph.papatasi*, *Ph.caucasicus*, *Ph.mongolensis*, *Ph.alexandri*, *S.murgabiensis*, *S.grekovi* e'tirof etgan.

Sh.M.Jahongirov, R.A.Xamzayev, M.R.Raximovlar tomonidan 2013- 2015 yillarda Surxondaryo, Qashqadaryo, Navoyi, Samarqand va Jizzax viloyatlarida olib borilgan tadqiqotlari davomida 2 urug'ga mansub 9 turdagi: *Ph.papatasi*, *Ph.sergenti*, *Ph.caucasicus*, *Ph.mongolensis*, *Ph.alexandri*, *Ph.keshishiani*, *Ph.longiductus*, *S.murgabiensis*, *S.grecovi*, *S.sogdiana* moskitlarni topilgan.

O'zbekistonda hozirgi vaqtda leyshmanioz bilan kasallanish Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarida ko'payib borayotgani qayd etilgan. O'zbekistonda taxminan 1,5 million odam kasallik bo'yicha endemik hududlarda istiqomat qiladi. Respublika sanitariya-epidemiologiya nazorati markazining 2018 yildagi rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, Respublikada teri leyshmaniozi (TL) bilan kasallanish 37% ga (503 tadan 766 tagacha, 100 ming aholiga 1,6% dan 2,4% gacha) ortgani qayd etilgan. Surxondaryo viloyatida bu ko'rsatgich 40% ga oshdi (149 dan 248 holatgacha), Samarqandda - 3,3 barobarga

( 27 dan 88 holatgacha), Buxoroda 35% ga (66 dan 102 ta holatga), Jizzaxda 19% ga (42 tadan 52 ta holatga) oshgani qayd qilindi.

Olib borilgan tadqiqotlar moskitlarning leishmanioz o'choqlarida tarqalishini so'nggi yillardagi tur tarkibidagi o'zgarishlarini aniqlash, har bir hudud bo'yicha ularning generatsiya davrlarini belgilash va ularga qarshi kurash samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot materiallari va uslublar**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot hududlarida 2019–2022 yillar davomida O'zbekistonning Markaziy va Janubiy hududlarida joylashgan Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati tuman va qishloqlari leishmaniozga endemik o'choqlarida olib borilganligi hamda moskitlar asosida o'tkazilgan molekulyar-genetik tahlillar to'g'risida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari ushbu bobda moskitlarni tutishning bir necha usullari keltirilgan bo'lib, tadqiqotimiz davomida leishmanioz uchun o'choq hisoblangan hududlarda kostor yog'i bilan yog'langan A4 formatdagi yopishqoq qog'ozlardan foydalanildi va jami 2905 dona moskit tutildi. Qog'ozlarni o'rnatish ishlari quyosh botishidan 1 soat oldin amalga oshirildi, ertasi kuni ertalab yig'ib chiqildi va tutilgan moskitlar maxsus entomologik igna yordamida terib olindi hamda 96% spirt to'ldirilgan epindorf probirkalarga joylashtirildi.

Laboratoriya sharoitida spirdagi moskitlar filtr qog'ozida quritilib, so'ngra "gummi arabika" va (fora) aralashmasidan buyum oynasiga tomizilib, ustidan moskitlar tartib bilan qo'yilib doimiy preparatlar tayyorlandi. Tayyor preparatlar asosida mikroskopiya usulida moskitlar morfologik jihatdan farqlanib tur tarkibiga aniqlik kiritildi.

Tadqiqot usuli sifatida qo'llanilgan polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) usuli Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahridagi "BEAGL" firmasidan buyurtma asosida olib kelingan "praymer"lardan foydalanilib leishmanioz o'choqlaridan tutib kelingan moskitlar asosida amalga oshirildi. Biz Chexiya davlatining Octrav universitetining "Triponosoma biologiyasi" laboratoriyasida professor, PhD. Yurchenko Vicheslav Yurievichga molekulyar biologik tahlillar o'tkazishdagi yordami uchun minnaddorchilik bildiramiz.

«**Moskitlarning morfologik belgilari va leishmanioz o'choqlaridagi faunistik tahlili**» deb nomlangan uchinchi bobda *Phlebotomus* va *Sergentomya* kichik urug'ining morfologik belgilarini aniqlash bo'yicha tahlil natijalari ifodalangan. Har bir turga xos xususiyatlar keltirilgan bo'lib, tadqiqot davomida tutilgan moskitlarning turlarga xosligini ifodalovchi rasmlari bilan morfologik o'xshashligini tasdiqlovchi rasmlar taqqoslangan. Bob davomida olib borilgan tadqiqot hududlarida moskitlarning tur tarkibi bo'yicha hamda mo'llik imseksi (MI) ma'lumotlari tahlili bayon qilingan.

**Samarqand viloyatining Urgut tumanida** oxirgi 3 yil davomida 50 dan ortiq asosan yosh bolalar ichki (visseral) leishmanioz bilan kasallanish holatlari qayd etilgan. Shu sababdan Urgut tumanida moskitlarning tur tarkibi, generatsiya davrlarini aniqlash juda muhim. Ushbu hududlarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida *Phlebotomus* va *Sergentomya* avlodiga mansub besh turdagi 308 dona moskitlar tutildi hamda bu moskitlar morfologik va genetik jihatdan farqlandi. (1-jadval)

**1-jadval.**

**Samarqand viloyati Urgut tumanidan tutilgan moskitlar tur tarkibi.**

Moskit turi	Erkak			urg‘ochi			Jami		
	soni	%	MI	soni	%	MI	soni	%	MI
<i>Ph. papatasi</i>	19	6,1	0,23	8	2,6	0,1	27	8,7	0,33
			M±m 0,57±0,15			M±m 0,2±0,04			M±m 0,76±0,19
<i>Ph. sergenti</i>	148	48	1,85	47	15,2	0,58	195	63,3	2,4
			M±m 0,57±0,57			M±m 0,2±0,17			M±m 0,76±0,73
<i>Ph. longiductus</i>	36	11,6	0,45	16	5,3	0,2	52	16,9	0,65
			M±m 0,57±0,05			M±m 0,2±0,001			M±m 0,76±0,05
<i>Ph. alexandri</i>	18	5,8	0,22	5	1,6	0,06	23	7,5	0,28
			M±m 0,57±0,16			M±m 0,2±0,06			M±m 0,76±0,21
<i>S. grecovi</i>	8	2,5	0,1	3	1,1	0,04	11	3,6	0,14
			M±m 0,57±0,21			M±m 0,2±0,07			M±m 0,76±0,28
Jami	229	74,3	2,85*	79	25,7	0,98*	308	100	3,8*

Izoh: \* – P < 0,05

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko‘rinib turibdiki, o‘rganilayotgan hududdagi moskitlar orasida dominant tur *Phlebotomus sergenti* bo‘lib, ularning soni jami tutilgan moskitlarning 195 tasini tashkil qilib 63,3%ga to‘g‘ri keldi. Shuningdek, miqdor jihatdan keyingi o‘rinni *Ph.longiductus* egalladi, uning ulushi 16,9% (52 ta namuna)ni tashkil qildi. *Ph.papatasi* kam ya‘ni 8,7% (27 namuna)ni, *Ph.alexandri* esa juda kam uchradi, 23 ta namuna (7,5%) tutildi. *Sergentomia grekovi* eng kam sonli, 11 ta namuna (3,6%)ni tashkil qildi. Shunisi e‘tiborga loyiqliki, jami yig‘ilgan moskitlardan urg‘ochi moskitlar soni erkaklariga qaraganda sezilarli darajada kam yani 229 tani yoki (74,4%)ni erkaklari va 79 ta (25,6%) ni urg‘ochilari etgan.

**Jizzax viloyati va Jizzax shahridagi** leishmanioz o‘choqlarida moskitlar papulyatsiyasi bo‘yicha tadqiqotlar bir necha o‘n yillar davomida olib borilmagan. Moskitlarni yig‘ish 2022-yil davomida, Zafarobod, Sharof-Rashidov va Zarbdor tumanlarining leishmanioz uchun endemik hisoblangan hududlardagi kasallik aniqlangan xonadonlarda olib borildi. Tadqiqot ob‘ektlari kasallik tarqalgan hududlardagi xonadonlar bo‘lib, xonadonda a‘zolaridan biri antroponoz teri leishmaniozi bilan kasallangandi va bunday xonadonlardan 12 tasi o‘rganildi. Tadqiqot davomida *Phlebotomus* va *Sergentomyia* avlodiga mansub besh turga mansub 369 ta moskit tutildi. Yig‘ilgan materialni turlar bo‘yicha taqsimlanishi 2-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldagi ma‘lumotlarga ko‘ra, barcha tumanlardan tutilgan moskitlar soni tahminan teng - har bir hududda (tumandan) 83-106 ta gacha namunada moskitlar tutildi. Tadqiqot olib borilgan tumanlarning barchasida antroponoz teri

leyshmaniyoziyning asosiy tashuvchisi hisoblangan *Phlebotomus sergenti* turi dominant tur ekanligi aniqlandi. Uning ulushi umumiy tutilgan 369 ta moskitlarning 254 tasiga (taxminan 70%; har bir tumanda – 57% dan 80% gacha) to‘g‘ri keldi. Keyingi dominant tur zoonoz turi leyshmaniyoziyning asosiy tashuvchisi hisoblangan *Phlebotomus.papatasi* 62 ta namunani tashkil qildi (tahminan 17%, har bir tumanda 8-25%). Bundan tashqari *Ph.alexandri* turning ulushi barcha tutilgan moskitlarning 7% ni tashkil qiladi (ayrim hududlarda 5 dan 13% gacha). Ichki visseral leyshmaniyoziyning tashuvchisi hisoblangan *Ph.longiductus* turi esa ancha kam yani Jizzax shahrida (10 ta namuna, 11%)ni va Sharof Rashidov viloyatida (11 ta namuna, 10%)ni tashkil qilib, viloyat kesimida tutilgan barcha turdagi moskitlarning 6% dan kamrog‘ini ushbu tur tashkil etgan.

## 2-jadval.

### Jizzax viloyatida tutilgan moskidlar tur tarkibi

Moskit turi	soni (%) / MI				MI	Jami	
	Jizzax.sh	Zafarobod	Sharof Rashidov	Zarbdor		soni	%
<i>Ph. Papatasi</i>	24 (25)/1,2	11 (12,1)/0,55	8 (7,5)/0,4	19 (23)/0,95	0,77 M±m 0,67±0,04	62	16,8
<i>Ph. Sergenti</i>	51 (57)/2,5 5	74 (81)/3,7	80 (75,5)/4	49 (59)/2,45	3,17 M±m 0,67±0,4	254	68,83
<i>Ph. Alexandri</i>	4 (5)/0,2	6 (7)/0,3	5 (5)/0,25	11 (13)/0,55	0,32 M±m 0,67±0,12	26	7,04
<i>Ph. longiductus</i>	10 (11)/0,5	0 (0)/0	11(10,4)/0,55	0 (0)/0	0,26 M±m 0,67±0,09	21	5,7
<i>S. Grecovi</i>	0 (0)/0	0 (0)/0	2 (2)/0,1	4 (5)/0,2	0,07 M±m 0,67±0,01	6	1,63
Jami	89(100) /4, 5*	91(100) /4,55	106(100)/5, 3	83(100)/4, 15	4,61*	369	100
Jami, %	24,2	24,6	28,7	22,5			100

Izoh:\* – P < 0,05

**Qashqadaryo viloyatida** tadqiqotlar davrida jami 1249 ta moskitlar namunasini turar-joy, molxonalar va katta qumsichqon kaloniyalaridan yig‘ib olindi. Leyshmanioz o‘choqlarida *Phlebotomus* avlodiga mansub moskitlarning 5 ta turi *Ph.papatasi*, *Ph.caucasicus*, *Ph.mongolensis*, *Ph.sergenti*, *Ph.andrejevi* va *Sergentomiya* avlodiga mansub ikkita tur *S.clydei* hamda *S.sogdiana* turlarining mavjudligi aniqlandi va natijalar quyidagi 3- jadvalda keltirilgan.

Jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyatining ZTL tabiiy o‘choqlarida moskitlarning *Ph.papatasi* turi turar-joy va hayvonlar uchun mo‘jallangan binolarda ustunlik qildi (59,0-67,9%). Shu bilan birgalikda *Ph.*

*andrejevi*, *Ph.caucasicus*, *Ph.alexandri*, *Ph.mongolensis*, *Ph.sergenti*, kabi turlar ham uchrashi ma'lum bo'ldi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha zoonoz teri leyshmaniyozi bilan kasallangan odamlarning eng yuqori darajasi Muborak shahrida qayd yetilgan. Qayd etish joizki, Muborak shahri yaqinida joylashgan zonozli teri leyshmaniyozi saqlovchilari hisoblangan kata qumsichqonlar inlari mavjud bo'lgan cho'l zonasidagi moskitlarni asosiy qismini (kata qumsichqonlar o'rtasida leyshmaniyozi tashuvchisi hisoblangan) *Ph.andrejevi* - 62,2% va (odamlar orasida leyshmaniyozi tashuvchi) *Ph.papatasi* -25,8% ni tashkil qildi. Aholi yashaydigan manzillarga yaqinlashgan sari *Ph.andrejevi* soni kamayishi, *Ph.papatasi* turi esa ko'payishi kuzatildi.

### 3-jadval.

#### Qashqadaryo viloyatining leyshmanioz o'choqlaridan tutilgan moskitlar tur tarkibi va jinsi bo'yicha taqsimlanishi.

Moskit turi	erkagi soni (%)	MI (M±m)	urg'ochi soni (%)	MI (M±m)	Jami soni (%)	MI (M±m)
<i>Ph. papatasi</i>	198 (15,8)	1,23	132 (10,6)	0,82	330 (26,4)	2,05
		0,69±0,2		0,41±0,15		1,11±0,35
<i>Ph. sergenti</i>	134 (10,7)	0,83	72 (5,8)	0,45	206 (16,5)	1,28
		0,69±0,05		0,41±0,02		1,11±0,64
<i>Ph. andrejevi</i>	204 (16,3)	1,27	134 (10,7)	0,83	338 (27)	2,11
		0,69±0,22		0,41±0,16		1,11±0,37
<i>Ph.caucasicus</i>	84 (6,7)	0,52	41 (3,5)	0,25	125 (10,2)	0,77
		0,69±0,06		0,41±0,06		1,11±0,13
<i>Ph.mongolensis</i>	43 (3,4)	0,26	25 (2)	0,15	68 (5,4)	0,47
		0,69±0,16		0,41±		1,11±0,24
<i>S. sogdiana</i>	63 (5)	0,39	37 (3)	0,23	100 (8)	0,62
		0,69±0,12		0,41±0,099		1,11±0,19
<i>S. grecovi</i>	54 (4,3)	0,33	28 (2,2)	0,17	82 (6,5)	0,5
		0,69±0,13		0,41±0,09		1,11±0,23
Jami	780 (62,2)	4,83*	469 (37,8)	2,9*	1249 (100)	7,80*

Izoh: \* – P < 0,05

**Surxondaryo viloyatida** so'nggi yillarda umuman O'zbekistonda xususan, Surxondaryo viloyatida teri leyshmaniozi bilan kasallanish holatlari ko'payganini inobatga olgan holda tadqiqot davomida *Phlebotomus* urug'iga mansub (4 tur) va *Sergentomyia* urug'iga kiruvchi (2 tur) jami olti turdagi 979 ta 2 urug'ga mansub, 6 turdagi moskitlar tutildi. Tadqiqot davomida yig'ilgan moskitlarning tur tarkibi bo'yicha qayta ishlash natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

Jadvalda ma'lumotlarga ko'ra, ikki tadqiqot mavsumida barcha tadqiqot hududlarida tutilgan leyshmaniyozi tashuvchilari hisoblangan moskitlar soni har xil

miqdorda, ya'ni Dehqonobod va Jarqo'rg'on tumanlaridagi leyshmanioz tarqalgan hududlardagi har bir xonadonda 34 tadan 43 tagacha tutilgan bo'lsa, Poshqurt (Sherobod tumani)da 96 tadan 121 tagacha tutildi. Turli xonadonlarda ushlangan moskitlar sonida katta farq borligiga sabab, xonadon egalarning fikriga ko'ra, moskitlar kam sonida tutilgan uy xo'jaliklarida o'simliklar zararkunandalarga qarshi insektitsidlar bilan dezenfeksiya o'tkazilganligi bilan bog'liq. 2019-2022 yillarda taqdiqot olib borilgan viloyatlar kesimida moskit turlarining foiz ulushlari jamlangan holda ifodalangan.

#### 4-jadval.

#### Surxondaryo viloyatida yig'ilgan moskitlarning tur tarkibi va tumanlar bo'yicha taqsimoti

Moskitlar turlari	Moskitlar soni (%)						Jami		
	Termiz sh	Dehqonobod (Jarqo'rg'on)	Sherobod	Boysun	Sina (Denov)	Oltinsoy	soni	MI	%
<i>Ph. papatasi</i>	114 (45,4)	26 (33,8)	156 (35,9)	3(4,8)	22 (37,3)	57 (67,1)	378	2,7 M±m 0,73±0,48	39,1
<i>Ph. sergenti</i>	83(33,2)	31 (40,3)	206 (47,3)	54 (87,1)	13 (22,1)	16 (18,8)	403	2,87* M±m 0,73±0,49	41,6
<i>Ph. alexandri</i>	10(3,9)	0(0)	28(6,4)	0 (0)	9 (15,2)	12 (14,1)	59	0,42 M±m 0,73±0,03	6,1
<i>Ph. Longiductus</i>	0(0)	0 (0)	0 (0)	5 (8,1)	11 (18,6)	0 (0)	16	0,11 M±m 0,73±0,12	1,6
<i>S. Grecovi</i>	38(15,1)	12 (15,6)	45 (10,4)	0 (0)	0 (0)	0 (0)	95	0,67 M±m 0,73±0,28	9,8
<i>S. sogdiana</i>	6(2,4)	8(10,3)	0 (0)	0 (0)	4(6,8)	0 (0)	18	0,12 M±m 0,73±0,41	1,8
Jami.	251	77	435	62	59	85	969	6,92*	100
Jami, %	100	100	100	100	100	100			

Izoh:\* – P < 0,05

Dissertatsiyaning «Leyshmanioz o'choqlarida moskitlar tur tarkibining so'nggi 50 yil davomidagi o'zgarishi va ularning generatsiyasiga haroratning ta'siri» deb nomlangan to'rtinchi bobida teri leyshmaniozi transmissiv o'choqli kasallik ekanligini va ma'lum bir hududlarda uchrashini, bu esa kasallik tashuvchilarining tarqatishi bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Havo haroratining so'nggi yillardagi ko'tarilishi, leyshmanioz bilan kasallanishlar sonining sezilarli

darajada ortishi, leyshmanioz o'choqlaridagi moskitlarning tur tarkibini, generatsiya davrlarini qayta aniqlash zaruriyatidan leyshmaniozlar soni ortib borayotgan hududlar tanlab olindi. 50 yil oldin olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilindi. Surxondaryo viloyatidagi 50 yil oldingi moskitlar tur tarkibida va generatsiya muddatlarida o'zgarishlar aniqlandi va quyidagi jadvalda yuzaga kelgan farqlar 5-jadvalda ifodalangan.

### 5-jadval.

#### Surxondaryo viloyatida moskitlar turlarining so'nggi 50 yildagi o'zgarishi

N	Moskit turlari	1969-1972		2019-2022		Farqi MI
		%	MI	%	%	
1	<i>Ph.papatasi</i>	57,0%	1,5	39,1%	2,7	-16,9
2	<i>Ph.sergenti</i>	3,9%	0,3	41,6%	2,95	+37,7
3	<i>Ph.coucasicus</i>	26,6%	0,09	+	+	-26
4	<i>Ph.alexandri</i>	1,4%	0,15	6,1%	0,42	+4,7
5	<i>Ph.mongolensis</i>	7,2%	0,7	0	0	-7,2
6	<i>Ph.longiductus</i>	-	-	1,6%	0,11	+1,6
7	<i>S. grecovi</i>	2,4%	0,3	9,8%	0,67	+7,4
8	<i>S. arpaklensis</i>	1,3%	0,09	0	0	-1,3
9	<i>S.clydei</i>	+	+	0	0	
10	<i>S. sogdiana</i>	+	+	1,8%	0,13	+1,8
	Jami	100	2,86	100	6,99	

Izoh:\* – P < 0,05

